



27.01.2022 даги

О'ЗБЕКТЕЛЕКОМ ва Сардоба туман Санитария-эпидемиологик осойишталик маркази ўртасида
1400000,00 сўм умумий суммага тузилган 20 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 054
Шахсий ғазна ҳисобварақ 100022860242267074110054002

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда
	4292200			Жами
Январь	900 000,00			900 000,00
Февраль	250 000,00			250 000,00
Март	250 000,00			250 000,00
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	1 400 000,00			1 400 000,00

Жами 1400000,00 сўм

Бир миллион тўрт юз минг сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан _____ сўм ёки _____% *** шартноманинг умумий суммасидан
_____ % ***20 _____ ойида тўланиши лозим.


(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига _____% жорий ойнинг _____ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари

М.Ў.


(имзо)

Палвонов Саъдулла

Ф И Ш

Буюртмачи бош бухгалтери


(имзо)

Қаршиев Шерали

Ф И Ш

Ғазначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими
қабул қилди


(имзо)

«__» _____ 20__ й.

«__» _____ 20__ й.

20
- SON
**TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'RIDA
ABONENT SHARTNOMASI**

Yuridik shaxslar (shu jumladan, budget tashkilotlari) uchun

Guliston sh.

2022 yil "27" 01

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rinlarda – Kompaniya) nomidan 2021 yil "30" dekabrda 27-01-14/6034 -son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Sirdaryo filiali direktori Abdumotov R.E.(keyingi o'rinlarda – Operator) bir tomondan va Сайфода тўлов C.F.O. Ва Ш.С.Б nomidan Ustav (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi С.Х.Тербеков (keyingi o'rinlarda – Abonent) ikkinchi tomondan (keyingi o'rinlarda birgalikda - Tomonlar) telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha quyidagilar haqida Abonent shartnomasini (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Abonent ushbu Shartnomani imzolab:

- Operatorning WWW.UZTELECOM.UZ rasmiy veb-saytida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-369-moddalariga muvofiq "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo'lgan Ommaviy ofertasi (keyingi o'rinlarda – Oferta) shartlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida shartnoma tuzadi;

- Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operator Ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilishi (akseptini) hisoblanadi.

1.2. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarda ushbu Shartnomani imzolaganidan so'ng, Operator Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilganidan so'ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati doirasida o'z tanlovidan kelib chiqib, dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi mumkin.

1.3. Xizmat ko'rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi hamda ushbu xizmatni taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Operator ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilagan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.2. Abonent ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilagan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.3. Tomonlar ushbu Shartnoma amal qilish davrida, o'z huquq va majburiyatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralarini amalga oshiradilar.

3. Hisob-kitob va to'lovlar tartibi

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha xizmatlar (mobil aloqa xizmati bundan mustasno) ko'rsatilganidan keyin to'lovni amalga oshirish davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlari uchun (Postpaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi.

3.1.1. Xo'jalik hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun ko'rsatiladigan xizmat uchun kamida bir oylik abonent to'lovini oldindan amalga oshirish (Prepaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi

3.2. Tariflar Abonent bilan Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan barcha soliqlar va yig'imlarni o'z ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent to'lovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab **3 (uch) bank kuni** mobaynida amalga oshiriladi.

3.3.1. Ilk bor ulanishda Abonent to'lovi **100 (bir yuz)** foiz miqdorida oldindan to'lanadi. Dastlabki avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnoma (hisob) asosida hamda ushbu Shartnomaning tegishli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) ko'rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. **Budget tashkiloti bo'lgan Abonent uchun** Shartnomaning umumiy summasi ushbu Shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

Shartnomaning umumiy summasi (QQSni hisobga olgan holda) 1400000
(Бир миллион тўрт юз минг 000 000 000) so'mni tashkil etadi. Ushbu summa
(1400000) so'm
miqdoridagi Abonent to'lovini hamda (1400000)
miqdoridagi bir martalik to'lovni o'z ichiga oladi.

3.4.1. Mazkur Shartnomaning umumiy summasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summa Tomonlar o'rtasida imzolangan qo'shimcha kelishuv/taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

3.5. Abonent ushbu Shartnomaga asosan yoki berilgan hisob-faktura asosida har oyda Operator tomonidan hisob-faktura berilgan kundan boshlab **3 (uch) bank kuni** ichida ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Operatorning Shaxsiy (elektron) hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'laydi.

3.5.1. Xo'jalik hisobidan moliyalashtiriladigan abonentlar ushbu Shartnomada belgilangan abonent to'lovlari keying oy uchun oldindan amalga oshirishi shart.

3.6. Agar Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmasa yoki mazkur Shartnomaning **3.5 va 3.5.1-bandlarida ko'rsatilgan muddatda har oylik to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa**, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatishi mumkin.

3.7. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishga asos bo'la olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator xizmatlaridan foydalanishni vaqtincha to'xtatishni, shuningdek, hisobot davri (kalendar oyi) uchun istalmagan to'lovlarning oldini olishni istasa, Abonent hisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.8. Operatorning bonuslar ko'rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga taqdim etilgan barcha mablag'lar faqat Operator xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to'lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9. Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar, Shartnomaga muvofiq har bir xizmat turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada taqdim etilgan xizmatlarning to'liq kalendar oyi uchun umumiy miqdori ko'rsatiladi.

3.9.1. Agar Abonent 10 (o'n) ish kuni mobaynida Operator tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura bo'yicha o'z e'tirozlarini yozma yoki elektron shaklda taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo'yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko'rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning e'tirozlari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi kalendar oyida taqdim etiladigan xizmatlar uchun to'lov talabnomasida (hisobida, hisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.

3.10. Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamining balansi salbiy bo'lganida 1 (bir) kalendar oydan oshmagun muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonentga xizmatlardan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

4. Tomonlar javobgarligi

4.1. Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu Shartnomaga muvofiq belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida hamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo'ladi (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish holatlari bundan mustasno).

5. Nizolarni hal qilish tartibi

5.1. Tomonlarning ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasi talablari asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hamda nizolarni sudgacha hal etish tartibiga rioya qilingan holda o'zaro kelishuv orqali hal qilinadi.

5.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuv orqali hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Guliston tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

6. Alohida shartlar

6.1. Tomonlar mazkur Shartnomaning amal qilish davrida o'z huquqlari va majburiyatlari bilan bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini normalari buzishi mumkin bo'lgan har qanday choralar ko'rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qat'iy e'tirof etgan holda, o'zaro hamkorlik madaniyatini yuqori darajada ta'minlash va korrupsiya holatlariga muvofiq kurashish choralarini ko'radi.

6.2. Mazkur Shartnomaning amal qilish davrida Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan har qanday holatlarda va hodisalarda (yengib bo'lmaydigan kuchlar/fors-majior holatlari) Ofertaning 10-moddasi qoidalariga amal qilinadi.

6.3. Abonentning yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e'tiroznoma/shikoyat/taklif ko'rinishidagi murojaati ko'pi bilan 30 (o'ttiz) kun davomida ko'rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni ko'rib chiqish uchun 15 (o'n besh) kundan ortiq muddat talab etilsa, Abonent (murojaat muallifi) Operator tomonidan bu haqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

7. Yakuniy qoidalar

7.1. Ushbu Shartnomaning barcha muhim shartlari Ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Shartnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.

7.2. Ushbu Shartnoma Tomonlar o'rtasida imzolangan paytdan boshlab, kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr qadar amal qiladi. Agar, Shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugaganidan so'ng, Tomonlar (budget tashkiloti bo'lgan Abonentga tatbiq etilmaydi) o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va Tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

7.2.1. Budget tashkiloti bo'lgan Abonent uchun ushbu Shartnoma vakolatli davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr qadar amal qiladi.

7.2.2. Abonent tomonidan ushbu Shartnomaning imzolanishi - Oferta akseptini (Abonentning Oferta shartlarini qabul qilganligi haqidagi javobini) bildiradi.

7.3. Ushbu Shartnoma, shu jumladan, Operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Oferta, ilova va qo'shimchalar (agar mavjud bo'lsa) Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent o'rtasida to'liq Shartnomani tashkil etadi.

7.4. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlari (mulkdorlari) o'zgartirish uchun shu jumladan tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda Shartnoma o'z kuchida qoladi. Tomonlar bunday o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, 10 (o'n) kalendar kun ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.5. Ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa) va ushbu harakatlar Tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan hamda Tomonlarning muhrlari (mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

7.6. Ushbu Shartnoma davlat tilida, 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va har bir Tomon uchun bitta nusxadan beriladi.

8. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

OPERATOR:	ABONENT:
<p>“O'zbektelekom” AK Sirdaryo filiali Manzil: Guliston sh., A.Navoiy k., 45uy Bank ma'lumotlari: h/r: 20210000304074838124; STIR: 203366731; MFO: 00363; «Uz.R.TIF Milliy banki» Sirdaryo viloyat filiali. Tel: 672407070, 672400057, 672400099, 1155; E-mail: sirtel@uztelecom.uz</p>	<p><i>Саломба Тулов СЭО ВЭ Ж.С.Б</i> Manzil: <i>Пахтабод ш. 11Вн-Сино кўчаси 13-йи</i> Bank ma'lumotlari: h/r: <i>100022860241267074110054002</i> STIR: <i>200316898</i>; MFO: <i>00014</i>; Bank nomi: <i>Мажбурий банк УККМ Тошкент ш.</i> Tel: <i>69-344-11-54</i>; E-mail: <i>62-344-14-69</i>;</p>
<p>Operator nomidan: <i>Abdumatin I.B.</i> /F.I.Sh./</p>	<p>XIP: <i>23402005300100001010</i> Абонент номидан: <i>С.К.Полвоков</i> /F.I.Sh./</p>

QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA

№ _____

26.01.2022-yil

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Sardoba tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi bilan «O'zbektelekom» aktsiyadorlik kompaniyasi o'rtasidagi 24.01.2022-yildagi qiymati 1.400.000 (bir million to'rt yuz ming) so'mlik «Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida»gi 20-sonli abonent shartnomasi loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Mazkur shartnoma loyihasi Sardoba tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 24.01.2022-yilda kiritilgan.

XULOSA: Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunining 10-14, 24-35-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 26-27 boblari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 27.09.2018-yildagi PQ-3953-son qarori, O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi «Davlat xaridlari to'g'risida»gi Qonuni talablari asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Sardoba tumani
Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsul'ti



B.S.Pakirov